

# O‘ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING JORIY TENDENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521642>

**Xasanov Xayrullo Nasrulloevich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot*

*universiteti dotsenti*

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy tezisdagi kapital bozorini milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirishga doir amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning qisqacha mazmuni bayon etilgan. Milliy kapital bozorini rivojlantirishga doir ilmiy xulosalar shakllantirilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar, loyiha, jamg‘arma, investitsiyalar, milliy iqtisodiyot, savdo hajmi, moliyalashtirish manbalari, infratuzilma.*

Xalqaro kapital bozorining takomillashuvi alohida mamlakatlar moliya bozori va uning asosiy segmentlarini mos ravishda rivojlantirib borishni taqozo etmoqda. Kapital bozori bu moliyaviy resurslarni optimal ravishda taqsimlanishi va milliy jamg‘armalarni investitsiyalarga samarali yo‘naltirish uchun yaratilgan mexanizm hisoblanadi. O‘z navbatida, investitsiyalar davlatning iqtisodiy o‘sishi, infratuzilmani rivojlantirish, biznesni xalqaro bozorlarga chiqishi va axolini ish bilan ta‘minlash, innovatsion texnologiyalarni kirib kelishi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-291-sonli qarorida mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Xujjatga ko‘ra, Iqtisodiyot va moliya vazirligining kapital bozorini tartibga solish bo‘yicha quyidagi vakolatlari Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga o‘tkazilmoqda:

- qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari va qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi faoliyatini tartibga solish;
- korporativ boshqaruvni rivojlantirish, shuningdek, sug‘urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish.

Aytib o‘tish joizki, ushbu sohada regulyator to‘rtinchi bor o‘zgarmoqda. Jumladan, 2019 yilda Davlat raqobat qo‘mitasi negizida Kapital bozorini

rivojlantirish agentligi tashkil etilgan edi; u 2021 yilning may oyida tugatilib, uning vakolatidagi vazifalar Moliya vazirligiga o'tkazilgan edi. Xujjat bilan kapital bozori sohasida «Tartibga solish qumdoni» maxsus huquqiy rejimi joriy qilinmoqda va uning doirasida quyidagilar tasdiqlanmoqda:

- kapital bozorida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar;
- kapital bozorida chet ellik ishtirokchilarning faoliyati va operatsiyalariga doir alohida mexanizmlar;

- qimmatli qog'ozlar egalari to'g'risidagi axborotlar maxfiylikini ta'minlash va ularning mulkiy huquqlarini himoya qilish mexanizmlari. Bundan tashqari quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun ishlab chiqilishi belgilanmoqda:

- fuqarolarga jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallarini mahalliy fond bozoridagi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirish huquqini taqdim etish;

- aksiyalar ommaviy joylashtirilganda korxonadan tomonidan o'z xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejasi (ESOP) doirasida ularga ushbu aksiyalarni sotib olish buyicha imtiyozli huquqni taqdim etish. Bunda, ularning aksiyalarni sotib olishga yo'naltiriladigan oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlaridan oshmaydigan mablag'lari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinadi;

- 2024 yilning yakuniga qadar taqdim etilgan ayrim imtiyozlarni 2028 yil 31 dekabrga qadar uzaytirish;

- soliq to'lovchining soliq davri davomida jami mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 100 baravarigacha bo'lgan miqdordagi ish haqi va boshqa daromadlaridan mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag'iga yo'naltiriladigan daromadlarini 12 oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilish.

Shuningdek:


- «Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» DUK «Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi» AJga o'zgartirilib, Markaziy bankka o'tkazilmoqda;

- «O‘zbekiston respublika valyuta birjasi» AJ ta’rischiligida «Milliy kliring markazi» tashkil etilmoqda;

- 2025 yil 1 yanvardan boshlab davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlarning yagona hisobi «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» AJda yuritiladi;

- 2028 yil 31 dekabrga qadar «Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi» AJ, «O‘zbekiston respublika valyuta birjasi» AJ va «Toshkent» respublika fond birjasi AJ mablag‘larni maqsadli ravishda ularni rivojlantirishga yo‘naltirgan holda dividendlarni hisoblash va to‘lashdan ozod qilinadi.

2023-2025 yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» da belgilangan ustuvor yo‘nalishlar quyidagi rasm ma’lumotlarida keltirilgan (1-rasm).



**1-rasm. 2023-2025 yillarda kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» da belgilangan ustuvor yo‘nalishlar**

Bugungi kunda mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini rivojlanib borayotganligi sharoitida, mazkur jarayonlarga nafaqat tijorat banklari balki iqtisodiyot real sektori korxonalarini kengroq jalb qilish lozim. Ushbu amaliyotni takomillashtirish orqali mazkur aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalida

davlatning ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuvni kuchaytirish, mustaqil xalqaro reyting indekslariga ega bo‘lish va zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2019 yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa qator xalqaro ekspertlar ko‘magida 2020-2025 yillarda O‘zbekiston kapital bozorini rivojlantirish strategiyasining loyihasi ishlab chiqildi va keng jamoatchilik o‘rtasida muhokamaga qo‘yildi. Mazkur strategiyaning asosiy vazifalaridan biri - erkin muomaladagi jami qimmatli qog‘ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025 yil oxirigacha kamida 10-15 foizga yetkazish hisoblanadi. Belgilangan vazifalarga erishish uchun investorlar bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish, moliyaviy savodxonlikni yaxshilash orqali qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talabni oshirish, emitentlar sonini ko‘paytirish va yangi moliyaviy instrumentlar orqali qimmatli qog‘ozlar taklifini kengaytirish, qonunchilik va nazorat tizimini takomillashtirish, kapital bozori infratuzilmasini yaxshilash va kapital bozorini muvofiqlashtiruvchi organning institutsional salohiyatini mustahkamlash strategiyaning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanishi maqsadga muvofiq.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-291-sonli qarori.
2. Касимова М.И. Рынок капиталов: сущность, содержание и его место в системе рыночных отношений//Фундаментальные исследования 2016 - с. 152-156.
3. Иванова В.В. (2014) Современные финансовые рынки: Монография – 2014 - М.: Проспект - 572 с.
4. Frederics S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliodori. (2012) Financial markets and institutions. USA. Prentice Hall, P. 2.